

*Ollaberganova Marhabo Azodovna  
Urganch Davlat Pedagogika Instituti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada har qanday kasb egasi o‘z sohasini to‘g‘ri tanlay olishi uchun qanday kasbiy va shaxsiy talabalarni bilishi lozimligi masalasi keng tarzda tahlil etilgan. Shuningdek, hayot sifatini oshirishda soha egasining o‘zi bajarayotgan faoliyatidan qanchalik darajada qanoat hosil qilishi, o‘z hayotidan mammunlik darajasi ham muhim ekanligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, faoliyat, kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasbiy moslashish.

**Аннотация.** В данной статье в широком смысле анализируется вопрос о том, что должны знать профессиональные и личностные студенты, чтобы уметь правильно выбирать свою специальность. Оно также основано на том, что важное значение в повышении качества жизни имеет также степень удовлетворенности владельца месторождения выполняемой им деятельностью, уровень удовлетворенности своей жизнью.

**Ключевые слова:** студент, деятельность, профессиональное образование, профессиональная консультация, профотбор, профессиональная адаптация.

**Abstract.** In this article, the issue of what kind of professional and personal students should know in order to be able to choose their field correctly is analyzed in a broad way. It is also based on the fact that the degree of satisfaction of the owner of the field with the activities he performs, the level of satisfaction with his life is also important in improving the quality of life.

**Key words:** student, activity, professional education, professional advice, professional selection, professional adaptation.

### **KIRISH.**

Bugungi kundagi islohotlarning assosiy maqsadi ham yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. Shu jihatdan ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiklol g‘oyasini o‘zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh kasb egalarini shakllantirish lozim bo‘ladi. Toki

ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatparvar, iymone’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishsin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILII VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Kasb tanlashda nimalarga e’tibor qaratish kerak?

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir.

Psixologlar bunday mas’uliyatli qaror qabul qilishda faqatgina atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, tahlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo‘llashni taklif qilishadi.

#### **Psixologik testlar**

O‘zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab olishingiz mumkin. Faqatgina bunda onlayn platformalarda duch kelgan testga emas, soha mutaxassislari ishlab chiqqan professional testlarga tayanish kerak.

Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga «hukm» deb qarash kerak emas. Ular faqatgina moyillik yo‘nalishini belgilab beradi.

#### **Bilimlaringizni kengaytiring**

Turli kasbiy yo‘nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash kerak.

Har yili o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kitoblar nashr qilib boriladi. Ularda hattoki maktab o‘quvchilariga tanish bo‘lmagan kasblar bilan ham tanishish mumkin. Ehtimol, ulardan biri sizning tanlovingiz bo‘lishi mumkin.

#### **Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing**

Maktabni bitirish arafasida o‘siprin ko‘pincha kasblar haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladi. Ular tanlagen kasblarining faqat ijobjiy yoki aksincha salbiy jihatlarini ko‘rishadi. Bunda ota-onalar farzandlariga ko‘p narsalarni aniqlashtirishda yordam berishlari kerak.

9-sinfdan boshlab asta-sekin o‘zingiz tanlagen yo‘nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirot etish maqsadga muvofiq.<sup>1</sup>

Qaysi kasbni tanlash haqida bir qarorga keldingiz, deylik. Endi o‘zingizni shu yo‘nalishda sinab ko‘rish kerak. Buning uchun turli o‘quv-guruhlari bo‘lgan ko‘plab ixtisoslashgan maktablar va kurslar mavjud bo‘lib, ular transport vositalari mexanikasidan tortib, tadbirkorlikkacha o‘zingizni sinab ko‘rish imkoniyatini beradi.

<sup>1</sup> F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ota-onan tomonidan beriladigan maslahatlar foydali, lekin ular yakuniy qaror bo‘lmasligi, yordamchi ta’sirga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Yoki ona- ota o‘z yoshligida egallay olmagan, armon bo‘lib qolgan kasbga farzandini yo‘naltirishi ham noto‘g‘ri. Farzand – alohida shaxs va uning o‘z istaklari bor. Bu istaklar avvalroq armon bo‘lgan xohishlar uchun qurban bo‘lmasligi kerak.

Oilaviy an'analarni davom ettirish majburiy emas

Farzand onasi yoki otasining kasbini davom ettirmoqchi bo‘lsa, bu juda yaxshi. Lekin bunga uni majburlash noto‘g‘ri. Otaning shu kasbda o‘z baxti va muvaffaqiyatini topgani o‘g‘ilda ham xuddi shu ssenariy takrorlanadi degani emas.

Inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug‘ullansa, o‘zini baxsiz his qiladi.

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak:

- Sizni yaqindan biluvchi insonlar – oila a'zolaringiz, do'stleringiz bilan maslahatlashgan holda, o‘zingizga qaysi kasb ko‘proq mos kelishi haqida so‘rab olishingiz mumkin.

- Ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko‘proq ma'lumot olishga yordam beradi. Maxsus manbalar (adabiyotlar, onlayn platformalar) talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar haqida ma'lumotlar beradi.

- Istaklaringiz va hayotdagi maqsadlaringizdan kelib chiqing.

- To‘plagan ma'lumotlaringizni chuqur tahlil qiling. «Hayotda menga nima kerak?» degan savolga javob berishga harakat qiling.

- Imkoniyat bo‘lsa, kasb tanlash bo‘yicha malakali mutaxassis bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq.

Kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- 1) Ta’lim - tarbiya tizimida kasbga yo‘llash faoliyatining mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.

- 2) O‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatishda o‘qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.

- 3) Sinf rahbarining ota - onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi.

- 4) Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.

- 5) Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko‘rsatilishi.

- 6) Maktablarda, ishlab chiqarish tashkilotlarida kasb tanlashni ommaviy va keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi.

- 7) Maxsus muassasalar faoliyati.

- 8) Kasbga oid ko‘rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.

- 9) Ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi.

- 10) Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.
- 11) Mutaxassis psixologlar tomonidan kasbiy bilimlarning o‘quvchilarga doimiy tarzda berilishi va ular bilan individual ishslash.<sup>2</sup>

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlangan insonning o‘zini baxtiyor his qilishi g‘oyasining mazmun-mohiyati yoshlar tomonidan to‘liq anglanilmaganligi aniqlandi. Umuman yoshlarni kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual - tipologik xususiyatlari va his - tuyg‘ularini, layoqat, qobiliyatlarini hisobga olish va psixologik savodxonligini oshirish, ularning kasbhunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo‘yiladigan psixografik, professiogrammali talablarga moslashishga imkon beradi.

Yoshlarni o‘z vaqtida individualligi asosida to‘g‘ri kasb tanlashlari ta’minlansa, ularda hayotning mazmuni anglanadi va sohaning bardavomligi asoslanadi. Bu esa hayotning sifatini oshirib, jamiyatimizning ertangi kuniga ishonch tuyg‘usini shakllantiradi. Yoshlarimizni kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlanib yashashlari uchun bugundanoq har birimiz o‘z salohiyatimizdan kelib chiqib to‘g‘ri yo‘naltirishimiz lozim, zero ular tanlagan yo‘lining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishsin va o‘z hayotlaridan mammun bo‘lishsin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagi 425-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)
2. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma.T.2003 yil.
3. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarov Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424.
4. Abdullayeva R.M. REQUIREMENTS FOR CHOOSING A PROFESSION. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)
5. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b.
6. Matyoqubovna, A. R. (2022). YOSHLARNI TO‘G‘RI KASB TANLASHGA YO‘NALTIRISH IJTIMOIY VOQELIK SIFATIDA. BARQARORLIK VA YETAKCHITADQIQLAR ONLAYNILMIY JURNALI, 2(11), 436-438.

<sup>2</sup> Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma.T.2003 yil.